

Arab Tilida “ح-ج-ج” (Ĥ-J-J) O‘Zagidan Yasalgan Hosila So‘Zlar Tahlili

Aygul Umarovna Umurzakova

2-kurs tayanch doktoranti

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

aygulumurzakova@gmail.com

Annotasiya

Ushbu maqolada, “ح-ج-ج” (Ĥ-j-j) o‘zagi va undan yasalgan hosila so‘zlarning lug‘atlardagi ma‘nolari ko‘rsatib, tahlil qilib berilgan. Olib borilgan izlanishlarimiz natijasida, “ح-ج-ج” (Ĥ-j-j) negizidan yasalgan hosila so‘zlarning qaysi ma‘nolarda kelishi va ularning “haj” bilan bog‘liqligi o‘rganib chiqildi. Tadqiqot ishining maqsadi, manbalarga tayangan holda “ح-ج-ج” (Ĥ-j-j) o‘zagidan yasalgan hosila so‘zlarning ma‘nolari o‘rganilib, tahlil qilgan holda, ulardan “haj” bilan bog‘liqlarini ajratib olish.


Kalit so‘zlar: “حَجَّ” (*hajja*) haj qilmoq, “حَجَّ” (*hajjun*) haj qilish, “حَاجَّ” (*hājjun*) hoji, “حَاجَّةٌ” (*hājjatun*) hoji ayol, “حَاجِّجٌ” (*hajjūn*) hojilar.

Arab tilidagi lug‘atlarda “ح-ج-ج” (Ĥ-j-j) o‘zagi va hosila so‘zlari ikki guruhni ya‘ni, fe‘l va ism so‘z turkumini tashkil etadi. Shunga ko‘ra, biz ham ularni ikki guruhga bo‘lib o‘rgandik.

Fe‘l. Ushbu guruhda fe‘llar uch va to‘rt o‘zakli fe‘l va ularning hosila shakllari (boblari) ko‘rinishida berilgan.

1.1. “ح-ج-ج” (Ĥ-j-j) uch o‘zakli fe‘l va ularning hosila boblari quyidagilar bo‘lib, “حَجَّ” (*hajja* (I)), “حَجَّجَ” (*hajjaja* (II)), “حَاجَّ” (*hājja* (III)), “أَحَجَّ” (*ahajja* (IV)), “تَحَجَّجَ” (*tahajjaja* (IV)), “تَحَاجَّ” (*tahājja* (VI)), “أَحْتَجَّ” (*ihtajja* (VIII)), ulardan “haj” bilan bog‘liq ma‘nodagilari ajratib chiqildi. Unga ko‘ra yuqorida ko‘rsatilgan uch o‘zakli fe‘l va ularning hosila boblaridan faqatgina “حَجَّ” (*hajja* (I)), “حَجَّجَ” (*hajjaja* (II)), “أَحَجَّ” (*ahajja* (IV)), “أَحْتَجَّ” (*ihtajja* (VIII)) boblarida “haj qilmoq, haj amalini ado etmoq; haj qildirmoq, hajga yubormoq, haj marosimiga jo‘natmoq; Baytulloh ziyorati uchun yo‘lga chiqmoq” ma‘nolarida qo‘llanilishi topildi. Lekin “ح-ج-ج” (Ĥ-j-j) uch o‘zakli fe‘l va ularning hosila boblarining “haj” bilan bog‘liq bo‘lmagan bir qancha ma‘nolarga ham, ega ekanligi aniqlandi. Ular quyidagi ma‘nolardir: “biror joyni ko‘zlab yo‘lga chiqmoq, otlanmoq; kimningdir oldiga kelmoq; biror narsadan to‘smoq; raqibni yengmoq, g‘olib kelmoq, ishontirmoq, ko‘ndirmoq, mot qilmoq; kimningdir ko‘zi atrofiga urmoq; jarohatni yorib ko‘rmoq; tortishmoq, munozara qilmoq, bahslashmoq; biror nima bilan o‘zini oqlamoq; asossiz dalil keltirmoq, o‘rinsiz tortishmoq; bahonalar topib qutulmoq; bir-biri bilan bahslashmoq, munozara qilishmoq, o‘zaro tortishmoq; biror nimani dalil qilib keltirmoq, biror nimani ro‘kach qilmoq; kimgadir qarshi dalil-hujjat keltirmoq; biror nimaga qarshi e‘tiroz bildirmoq, norozilik bildirmoq, qarshi chiqmoq; qattiq bo‘lmoq; baquvvat bo‘lmoq”.

1.2. “ح-ج-ج-ج” (Ĥ-j-Ĥ-j) to‘rt o‘zakli fe‘l va uning hosila bobi “حَجَّجَ” (*hajhaja* (I)) va “تَحَجَّجَ” (*tahajhaja* (II)) bo‘lib, ularning hech birida “haj” bilan bog‘liq ma‘nolari topilmadi. Ushbu fe‘llar quyidagi “qo‘rqoqlik qilmoq, o‘zini ortga tashlamoq; ichidagini aytib, keyin tonmoq; ichidagini aytmadan saqlamoq; ojiz bo‘moq;




baqirmoq, qichqirmoq; biror nimaga shama qilmoq; biror joyda turmoq, istiqomat qilmoq; biror narsadan to'smoq; to'xtamoq, tiyilmoq; biror nima haqida ikkilanmoq; baqirmoq, qichqirmoq" ma'nolarda berilgan.

Ism. Ushbu guruhda "ح-ج-ح" (h-j-j) o'zagidan yasalgan ism so'z turkumiga oid hosila so'zlar keltirilgan. Bunda ism so'z turkumidagi so'zlar quyidagi bo'lib, "اِحْتِجَاةٌ" (ihtijājun), "اِحْجٌ" (ahajju), "حَاجٌ" (hājjun), "حَاجَةٌ" (hājjatun), "حَاجٌ" (hajājjun), "حَاجٌ" (hijājjun), "حَجٌّ" (hajjun, hijjun), "حَاجٌ" (hajjājjun), "حَجَّةٌ" (hajjatun), "حَجَّةٌ" (hijjatun), "حُجَّةٌ" (hujjatun), "حَجَّجٌ" (hajajjun), "حُجَّجٌ" (hujujun), "حَجُّوجٌ" (hajūjun), "حَجِّجٌ" (hajtjun), "حُجِّيَّةٌ" (hujjiyyatun), "مُحَاجَّةٌ" (muḥājjatun), "مِحْجَاةٌ" (miḥjājjun), "مَحْجٌ" (mahajjun), "مَحْجَةٌ" (mahajjatun), "مَحْجَجٌ" (mahajajjun), "مُحْجَجٌ" (muḥajhijun), ulardan "haj" bilan bog'liq ma'nodagilari ajratib chiqildi. Unga ko'ra yuqorida berilgan "ح-ج-ح" (h-j-j) o'zagidan yasalgan ism so'z turkumiga oid hosila so'zlardan faqatgina "حَاجٌ" (hājjun), "حَاجَةٌ" (hājjatun), "حَجٌّ" (hajjun, hijjun), "حَاجٌ" (hajjājjun), "حَجَّةٌ" (hajjatun), "حَجَّةٌ" (hijjatun), "حُجِّيَّةٌ" (hujjiyyatun), "مَحْجٌ" (mahajjun), "مَحْجَةٌ" (mahajjatun) so'zlarida "hoji, haj amalini bajargan kishi; hoji ayol; Baytullohni ziyorat qilish uchun borish, haj qilish; haj; ko'p haj qiluvchi; bir marta haj qilish; haj qiladigan, ziyorat qilinadigan joy" ma'nolarida qo'llanilishi aniqlandi. Qolgan "ح-ج-ح" (h-j-j) o'zakli bilan yasalgan ism so'z turkumidagi so'zlardan "haj" bilan bog'liq bo'lmagan ma'nolarda ekanligi ko'rindi. Ular quyidagi ma'nolardir: "dalil-hujjat keltirish; bahona, vaj, uzr; norozilik, e'tiroz, qarshilik; norozilik, protest; qattiq; quloqqa taqiladigan gavhar; quloqni yumshoq joyi; tomon, taraf; ko'z kosasi, ko'z soqqasi atrofidagi suyak; quyosh gardishining cheti; o'ydin-chuqur yo'l; tortishish, bahslashish, bahs, muzokara; tomon, taraf; g'orli qoya; yil; hujjat, dalil, isbot; bahona, vaj; ishonchli manba; suyakdagi o'yoq, iz; o'nqir-cho'nqir yo'l; o'yib ko'rilgan jarohat; goh to'g'ri, goh o'nqir-cho'nqir yo'l; yarasi yorib ko'rilgan kishi; yorib ko'rilgan jarohat; jarohatni davolashning bir turi; hujjat keltirib g'olib bo'lgan raqib; hujjat bo'la olish, hujjatlilik; tortishuv, bahs; ko'p tortishadigan, ko'p bahslashuvchi kishi, janjalkash; jarohatni yorib ko'radigan asbob; yo'l; yo'lning katta qismi; yomon, sifatsiz; ojiz; sustkash, loqayd".

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, "ح-ج-ح" (h-j-j) o'zagi va undan yasalgan hosila so'zlarning jadvaldagi ko'rinishi:

"ح-ج-ح" (h-j-j) o'zagi va undan yasalgan hosila so'zlar					
№	So'z turkumi		umumiy hosila so'zlar	"haj" bilan bog'liq so'zlar	31 ta so'zdan "haj"ga bog'lig'ini %
1.	Fe'l	uch o'zakli fe'l va hosila boblari	7	4	13 %
		to'rt o'zakli fe'l va hosila bobi	2	0	0 %
2.	Ism		22	8	26 %
JAMI:			31	12	39 %

Ushbu tadqiqotimiz natijasida, "ح-ج-ح" (h-j-j) o'zagi va undan yasalgan hosila so'zlarining ma'nolari, hamda ulardan "haj" bilan bog'liq ma'nolarini ajratib olgan holda, o'rganib chiqib, quyidagi xulosalarga keldik:



- ✓ “حَجَّ” (**hajja**) fe’lining “*haj qilmoq, haj amalini ado etmoq*” ma’nosidan boshqa bir qancha ma’nolarga ega ekanligi;
- ✓ “ح-ج-ج” (**h-j-j**) o’zagidan uch o’zakli fe’ning 7 ta hosila bobi (I, II, III, IV, V, VI, VIII) va to’rt o’zakli fe’ning 2 ta hosila bobi (I, II) mavjudligi;
- ✓ “ح-ج-ج” (**h-j-j**) uch o’zakli fe’ning yettita hosila boblaridan faqatgina 4 ta bobida (I, II, IV, VIII) “*haj*” bilan bog’liq ma’nolari aks etgan. Lekin to’rt o’zakli fe’ning ikkala bobida ham “*haj*” bilan bog’liq ma’nolari mavjud emasligi;
- ✓ “ح-ج-ج” (**h-j-j**) o’zagidan yasalgan ism so’z turkumiga oid hosila so’zlardan 22 ta so’z topilganligi;
- ✓ ism so’z turkumiga oid “ح-ج-ج” (**h-j-j**) o’zagidan yasalgan 22 ta so’zdan 8 tasi “*haj*” bilan bog’liq ma’nolarda kelganligidir.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Н.Ибброгимов, А.Орипов, А.Икромжонов, А.Зайриев. Ал-Қомус арабча-ўзбекча қомусий луғат. 1-жилд. – Тошкент: Ғофур Ғулом, 2017.
2. О.Носиров, М.Юсупов. Ан-Наим Ул-Кабир арабча-ўзбекча луғат. – Наманган: Наманган, 2014.
3. Шайх Муҳаммад Содиқ. Қуръони карим маънолари таржимаси. 7-жуз. – Тошкент: Шарқ, 2008.
4. Х.К.Баранов. Арабско-русский словарь. – Москва: Русский язык, 1985.
5. ۲۰۰۹ – بيروت – دار الكتب العلمية – الجزء الثاني. لسان العرب. ابن منظور.
6. ۲۰۰۴ – بيروت – مكتبة لبنان – الجزء الأول. كتاب العين معجم. الخليل بن أحمد الفراهيدي.
7. ۲۰۲۰ – الطابع الزمني – المكتبة الشاملة – معجم الغني. عبد الغني أبو العزم.
8. ۱۹۸۴ – بيروت – مكتبة لبنان – قاموس عربي إنكليزي. وليم طمسن.